

ROSSIYANING TASHQI SIYOSATIDA “TOLIBON OMILLI”

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

*Atropologiya va Etnologiya yo‘nalishi 2 kurs talabasi Mirsaidova Ozoda
Ilmiy rahbar: Sharq sivilizatsiyasi va tarixi fakuteti Markaziy Osiyo xalqlari
tarix va etnologiyasi kafedrasи o‘qituvchisi Shosaidov. A*

Annotatsiya: Maqolada Tolibonning hukumat tepasiga kelishi va bunga Rossiyaning olib borayotgan siyosati haqida aytib o‘tilgan. Hozirgi davrda Ukraina muammosining dolzarbligi bois, Afg‘oniston masalasida yirik kuch markazlarining e’tibori kamaygandek ko‘rinmoqda. Ammo Markaziy Osiyo davlatlari manfaatlariga asosiy ta’sirga ega bo‘lgan Afg‘oniston Rossiya bilan hamkorlik asosida manfaatlarni himoya qilishi mumkin. Xususan Afg‘oniston masalasida tashkil etilgan barcha konferensiyalarda albatta Rossiya tomonining mavjudligidan Afg‘oniston siyosatiga ta’sir qiluvchi asosiy aktorlardan ekanini bilishimiz mumkin.

Kalit so’zlar: Tolibon, Afg‘oniston, konserium, konstruktizm, diaspora, FNSA, Moskva variant, diversifikatsiya, intervensiya.

Barcha davlatlarning tashqi siyosatda davlatlarning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda konstruktiv (boshqa davlatlarning manfaatlariga zid kelmaydigan) siyosat olib borishga harakat qiladi. Rossiya Tolibon bilan sekinlik bilan yaqinlashish siyosatini olib borishga harakat qilmoqda. Sababi Afg‘onistondan Markaziy Osiyo davlatlariga keladigan tahdidlarni oldini olish maqsadida bir qancha say harakatlar olib borish nazarda tutilgan. Rossiya tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasi muhim o‘rin egallaydi. Moskva Afg‘onistondagi vaziyatdan Rossiyaning global kuch raqobatiga qaytishi uchun G‘arbning demokratlashtirish va inson huquqlarini kun tartibiga qarshi argument sifatida foydalanishi kerak. Rossiyaning Afg‘onistonga oid siyosatida alohida strategiya ishlab chiqmagan bo‘lsada, zamonaviy Afg‘onistondagi vaziyatning Markaziy Osiyo mintaqasiga ta’sir ko‘rsatishi va AQShning Markaziy Osiyoni Afg‘oniston masalalariga kengroq jalb etishga qaratilgan geosiyosiy urinishlari Kreml rahbarlarini Afg‘oniston siyosatidagi yondashuvlarini jiddiy qarab chiqishga va muhokamma qilishga chorlaydi. 2019-yil 5-6 fevral sanasida Moskvadagi afg‘on diasporasi (tarqalish — o‘z vatanidan tashqarida yashovchi etnik guruhlarga aytiladi)¹. Afg‘oniston siyosiy muxolif guruhlari rahbarlari va “Tolibon” harakati delegatsiyasi “Tolibon” harakati delegatsiyasi “Afg‘onlararo muloqat” uchrashuviga to‘planishdi. “Afg‘onlararo muloqat” muzokaralar formatining o‘ziga xos jihat shundaki, unda Abbos Stanikzay rahbarligida “Tolibon” delegatsiyasi va

Xamid Karzay, Xanif Atmar, Ato Muhammad Nur, Yunus Qonuniy, Ismoilxon, Anvar ul Xaq Axadiy va boshqa shu kabi afg'on siyosiy arboblari tashqi doiralarning ishtirokisiz yopiq tarzda muzokaralar olib borishdi.² Bundan kelib chiqadiki Kreml imkon qadar va qanday sharoitda bo'lishidan qat'iy nazar AQSh o'zini ishonchksiz hamkor sifatida ko'rsatganini ta'kidlash kerak. Rossiya Federatsiyasi Tolibonga iqtisodiy yaqinlashuv harakatlarini olib borishga harakat qilmoqda bunga O'zbekiston ham gumanitar yordam berish orqali harakat qilib kelmoqda harakat. Rossiya bilan Afg'onistonga benzin, dizel yoqilg'isi, gaz va bug'doy yetkazib berish bo'yicha dastlabki kelishuvni imzoladi.

Rossiya tashqi siyosatida Tolibon omillini SWOT tahlil asosida ohib berish:

Kuchli jihat: Rossiya "Tolibon" ma'muriyatiga xomashyoga chegirma taklif qilgan.

Zaif jihat: Agarda Afg'onistondan kelib chiqadigan xavfsizlik xatarlari terrorizm, jihodchilik va siyosiy beqarorlik ko'rinishida bo'ladigan bo'lsa, Afg'onistondan Markaziy Osiyo mintaqasi orqali Rossiyaga radikal elementlar va Afg'onistondan giyohvand moddalar kirib kelishi mumkin.

Imkoniyatlar: Afg'onistonning sobiq prezidenti Ashraf G'ani olib borgan amaliy siyosiy boshqaruvi bo'yicha Rossiya Tolibon bilan muzokaralar olib borishga kirishdi, ya'ni Rossiya va AQSh bilan katta geosiyosiy kurashning yanada kuchaytirdi va bo'shliqni to'ldirish va hududdagi beqarorlik to'lqinini to'xtatishga harakat qilmoqchi.

Tahlikalar: Rossiyaning Markaziy Osiyo davlatlariga bo'lgan ta'sirini kamayishi va Markaziy Osioning besh davlati Tolibon hukumati bilan aloqalarini yaxshilasa dengizga chiqish imkoniyatini oshiradi. Yana bir Rossiya uchun tahlikalardan biri bu Xitoyning Markaziy Osiyo va Afg'onistonda o'z tasirini kuchaytirib borishi.

Hozirgi vaqtida ushbu loyihalarning amalga oshishi so'roq ostida qolmoqda. C5+1 Tojikiston vakillari Afg'onistonga yo'naltirilgan mablag'lar Tolibon hukumati qurolli kuchlarining yangidan qurollanishiga va bu o'z navbatida qo'shni davlatlar siyosatiga jiddiy ta'sir qilishidan o'z havotirini bildirdi.

Tolibonga yaqinlashish siyosatini nafaqat Rossiya balki O'zbekiston ham intilmoqda. Chunki O'zbekistonning janubiy viloyati Termiz Afg'oniston bilan chegaradosh. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev Termiz shahrida Afg'onistoni gumanitar qo'llab-quvvatlash jamg'armasini tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi. Afg'onistonda tinchlik va xavfsizlik o'rnatish masalalari yuzasidan amaliy muzokaralarni yo'lga qo'yish, ushbu mamlakatda milliy yarashuv

jarayonini keng qo'llab-quvvatlash uchun qulay muhit yaratish bugungi kunda har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi³.

AQSH qo'shinlarini 2021-yilda olib chiqqa boshladi. Tolibon markaziy hukumatni egalashga bo'lgan harakati va AQSh qo'shinlarining olib chiqilishi va 24-fevraldag'i bosqin bilan yakunlangan Rossiya bosqinlari mos ravishda Afg'oniston va Ukraina uchun ekzistensial "stress sinovlari" bo'ldi. Tolibon hukumati 2021-yil 15-avgustda Afg'oniston hududida urush tugaganini va barcha hududlar toliblar qo'liga o'tganligi haqida bayonotlar bera boshladi. Davlat boshqaruvi Tolibonning quliga o'tganidan so'ng davlatni shariat qonunlari asosida qurishga kirishdi. Afg'oniston sobiq hukumat amaldorlariga amnistiya berishga va "Ayollarning huquqlarini hurmat" qila boshlaydi. Lekin bu masalalarning birortasi hozirda amalga oshmadi. Tolibon Afg'oniston va Eronda ayollar huquqlarini himoya qilish kampaniyalariga javoban va hokimiyatni mustahkamlash uchun o'zlarining kurashlari fonida bu hujumlarni kuchaytirmoqda. Afg'onistonning sobiq prezidenti Ashraf G'ani olib borgan amaliy siyosiy boshqaruvi bo'yicha Rossiya Tolibon bilan muzokaralar olib borishga kirishdi, ya'ni Rossiya va AQSh bilan katta geosiyosiy kurashning yanada kuchaytirdi va bo'shliqni to'ldirish va hududdagi beqarorlik to'lqinini to'xtatishga harakat qilmoqchi. 2014-yilda xorijiy kuchlarning Afg'oniston hududini tark etishi va siyosiy muzokaralar bosqichining turli ko'rinishlari kuchayishi sharoitida RFning Afg'onistondagi tinchlik va barqarorlik jarayonlarida faol ishtirok etish zarurati vujudga keltirgan. Shu bois muzokaralar formatining "Moskva variant" ishlab chiqilib, u bo'lajak Afg'oniston atrofidagi geosiyosiy tendentsiyalarda Rossianing o'rni va rolini belgilab berishi lozim edi⁴. Moskva varianti eng katta istiqbolga va mintaqaviy miqyosga ega bo'ldi. 2017-yilda Moskvada Afg'oniston, Xitoy, Pokiston, Hindiston, Eron vakillari o'rtasida Moskva maslaxatlashuv formatini tashkil etish bo'yicha kelishuvga erishildi. 2017-yil 14 aprelda 11 ta davlatning tashqi siyosat idoralari va maxsus vakillari ishtirokida (Rossiya, Afg'oniston, Xitoy, Pokiston, Hindiston, Eron va Markaziy Osiyoning beshta davlati) Moskva formatining dastlabki uchrashuvi bo'lib o'tdi⁵. Ushbu formatni shakllantirishda mintaqaviy bo'limgan Afg'onistondagi harbiy intervensiya (bir yoki bir necha davlatning boshqa bir davlat ichki ishlariga zo'rlik bilan aralashuvi) va xorijiy harbiy ishtirokning bevosita ishtirokchilari (ya'ni AQSh va NATOning boshqa davlatlari) ishtirok etmaganligi ham muhimdir. Bunda Moskva Afg'on muammosi borasida mintaqaviy omilni ustuvor, deb biladi. Rossiya TIV Afg'onistondagi yangi hukumatni xalqaro izolatsiyadan chiqishning eng muhim sharti barcha asosiy ishtirokchilar manfaatlarini aks ettiruvchi jarayonni yakunlash uchun asos bo'ladigan etnik-siyosiy jihatdan muvozanatli kuch tuzilmasini shakllantirish ekanligini

⁵ Bo'ronov S. Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatish jarayonlarida

ta'kidladi, ya'ni afg'onlararo milliy yarashuv. Moskva formatining ikkinchi yig'ilishi 2018-yil 9-noyabrda Moskva shahrida bo'lib otdi. Ushbu yig'ilish Afg'oniston uchun Moskva variant mamlakatni qayta tiklash masalasi ko'rib chiqadigan xalqaro konferensiya sari ikkinchi qadam bo'lishi mumkin. Bunda Afg'oniston, Xitoy, Pokiston, Eron, Hindiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, tashqi ishlar vazirlari o'rindbosarlari, maxsus vakillar va kuzatuvchilar ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tdi. "Tolibon" harakat yetakchisi Sher Muhammad Abbas Stanakzay boshchiligidagi Dohadagi siyosiy delegatsiyasi bilan ilk bora xalqaro uchrashuvda qatnashdi. Muhakammaning asosiy mavzusi mamlakatdagi vaziyatni barqarorlashtirish uchun imkon qadar tezroq tinchlik bo'yicha to'g'ridan-to'gr'i afg'onlararo muloqatni yo'lga quyish masalasi bo'ldi. Bundan ko'rinish turibdiki Rossiya Afg'onistondagi vaziyatni siyosiy-diplomatik yo'l bilan tartibga solishga muqobil yo'l yo'qligini hamda qo'shni davlatlar va Afg'onistonning mintaqaviy sheriklarining bu yo'nalishda kelishilgan xolda ishlashi kerak. Uchrashuv ishtirokchilari Moskva formatining dolzarbligini qayd etib, ushbu mexanizm doirasida maslahatlashuvlarni davom ettirishga kelishib oldilar. Markaziy Osiyo va Afg'oniston bo'yicha taniqli ekspert A.Dubnovning bu boradagi ma'lumotlari ham e'tiborga molik: Rossiya "Tolibon" harakatining birinchi rahbari Mulla Umarning o'ldirilishi xabari e'lon qilingandan so'ng vujudga kelgan toliblar ichidagi bo'linish sharoitidan ular orasidan Afg'onistondagi o'z siyosiy manfaatlariiga mos keladigan rahbarlarni tanlash va Afg'onistonda "ISHID" guruhiga qarshi turuvchi kuch sifatida foydalanish maqsadini ko'zlagan edi⁶. Rossiyaning Afg'onistondagi maxsus vakili Z.Kabulov Tolibon bilan muzokaralar olib borish kerak deb takidlaydi. Rossiyaning Afg'onistonga nisbatan xatti-harakati, ayniqsa 2016 va 2020-yillar oralig'ida Tolibon bilan muzokaralarda o'zgarishi ochiq jihatga ega bo'ldi. Putinning Afg'oniston bo'yicha maxsus vakili Zamir Kabulov 2016-yil yanvarida Tolibon manfaatlari Rossiya manfaatlariiga to'liq mos kelishini ochiq tasdiqlagan edi⁷. Demak 2016-tildan buyon Rossiya Afg'oniston bilan rasmiy va norasmiy muzokaralar olib borgan. Ko'rishimiz mumkinki 2018-yilning noyabr oyidagi Tolibon vakillari bilan o'tkazilgan muzokara burulish nuqtasiga chiqqandi. 2021-yil iyul oyida Moskvada Tolibon delegatsiyasi qubul qilingandi ushbu uchrashuv davomida Rossiya muhim kafolatlar olgandi. Ya'ni Rossiya Afg'onistondagi diplomatik missiyasi uchun xavfsizlik kafolatlariga ega bo'ldi. Chunki Tolibon Afg'onistonning shimoliy chegaralarini buzmasligiga ishonch hosil qilish kerak. Tolibon ham hech bir tashkilotga mamlakatdan Rossiya yoki boshqa qo'shni davlatlarga hujum qilish uchun sifatida foydalanishiga yo'l qo'ymasligiga va'da berdi. Demak Tolibon Rossiya bilan shu yo'llar bilan ham yaqinlashish siyosatiga harakat qilmoqda.

2022-yil 16-noyabr kuni Afg'oniston bo'yicha Moskva formatidagi maslahatlashuvlarining navbatdagi 4-yig'ilishi Afg'onistonda tinchlik yo'li bilan tartibga solishdan manfaatdor mintaqaviy yetakchi davlatlar ishtirokida bo'lib o'tdi⁸. Uchrashuvda Rossiya vakili Z.Kabulov "Yig'ilishning asosiy vazifasumnumintaqaviy yondashuvni ishlab chiqarish" ekanligini, shuningdek, u toliblar etnik-siyosiy inklyuziv hukumat tuzish haqidagi kelishuvini bajarmagani uchun yig'ilishda taklif qilinmaganini ta'kidladi. Bu borada Moskva formatidagi davlatlar avvalo Tolibonsiz ummumiylar yondashuvni ishlab chiqadi, so'ng Kobul rasmiylari bilan birgalikda yoki alohida gaplashishdi.

Hozirgi kunga kelsak Rossiya faqat bor e'tiborini Ukraina ga qaratmoqda. Afg'onistonning Markaziy Osiyodagi shimoliy qo'shnilar uchun ham barqarorlikni oshirmoqda. Ayni paytga kelib G'arbning iqtisodiy sanksiyalari Markaziy Osiyoda qisqa muddatda garovlariga zarar yetkazmoqda sababi Rossiya savdosi va pul o'tkazmalarini to'xtatgan. Bu esa Markaziy Osiyo davlatlarining janubiy qanotida barqarorlikni oshirish istagini kuchaytirishi mumkin. Hozirda bo'layotgan vaziyatdan kelib chiqqan holda Rossiya-Ukraina mojarosining Afg'onistonga siyosiy ta'sirini aniqlash qiyinroq. Shuni aytish mumkinki Tolibon hokimiyatni egallashgan oldin Rossiya Tolibon bilan taktik aloqalarini rivojlantirgan. "Sobiq Afg'oniston hukumatining yaqinda qulashi geosiyosiy oqibatlari haqidagi munozaralarning aksariyati Xitoyning bundan keyin nima qilishi mumkinligiga qaratilgan. Biroq, Afg'onistondagi o'n yillik tajribasi va tarmoqlarini hisobga olgan holda, Rossiya inqirozga yuz tutayotgan faol mintaqaviy ta'sir o'tkazuvchi hisoblanadi"⁹. Qo'shma Shtatlarga qarshi qo'zg'atishni va Tolibon g'alaba qozongan taqdirda himoya qilishni maqsad qilgan (garchi Rossiya oxir-oqibat Afg'oniston Respublikasi saqlanib qolishiga umid qilgan bo'lsa ham).

2022-yil 20-noyabrda bo'lib otgan uchrashuvda Tolibonning ancha nufuzli delegatsiyasi Moskvada bo'lib Rossiya vositachiligidida Afg'oniston Milliy qarshilik fronti (FNSA) oliy rahbariyat bilan muzokaralar olib borishdi¹⁰. Milliy qarshilik front (FNSA) delegatsiyasiga Ahmad Masudning o'zi boshchilik qilishi haqida aytib o'tildi. Moskvadagi uchrashuvdan maqsad Tolibon va FNSA o'rtaida tinchlik bitimini tayyorlashdir. Tolibon rahbariyati ham Afg'onistondagi muammoni hal qilish siyosiy yo'l ekanligiga ishonch hosil qilishlariga umid qilmoqda. Lekin ushbu uchrashuv mish-mish ekanligi aytsa ham bo'ladi, buni hech qaday dalillar bilan tasdiqlay olmaydi. Ba'zi tafsilotlarda ular tomonidan tarqatilgan mish-mishlar bir oz farq qiladi (Xususan uchrashuvda faqat Vasikning Moskvada ekanligi haqida xabar berilgan).

Xulosa: Yuqoridagi mulohazalardan xulosa qilib aytganda Rossiya Afg'onistonda barqaror va farovonlikka imkon qadar tezroq erishishga yordam beradigan mo'tadil va oqilona siyosatni amalga oshirishni rag'batlantirish uchun Tolibon bilan amaliy hamkorlikni davom ettirishga kelishib olish kerak. Tolibonni barcha afg'onlar huquqlarini hurmat qiladigan hamda ayollar va qizlarning afg'on jamiyatining barcha jabhalarida ishtirok etishi uchun teng huquqliligini ta'minlaydigan inklyuziv va vakillik hukumatini shakllantirish yo'lida choralar ko'rish uchun vatandoshlar bilan hamkorlik qilishga chaqirdi. Hozirgi kunda Tolibon G'arb va AQSh bilan aloqalarni o'rnatmoqchi. Lekin Moskva va Pekin hozirgi bosqichda Tolibon homysi bo'lishni rejalashtirmayapti. Rossianing hozirda Ukraina bo'layotgan tazyqi Afg'oniston allaqachon NATO a'zolarining urush charchoqlaridan aziyat chekkan. bu chalg'itilgan e'tibordan so'ng Afg'onistondan Ukrainaga gumanitar yordam va qochqinlar yordami uchun resurslarning o'zgarishini kutishimiz mumkin. Teroristik guruhlarga qarshi kurashishda Tolibon bilan Rossianing va Markaziy Osiyoning manfaatlari to'qnashadi. Rossiya o'nlab yillar davomida Afg'onistondagi voqealar rivojiga o'z ta'sirini o'tkazgan va ularning ta'sirida bo'lgan davlat sifatida o'z xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'rish bilan birga, raqib AQSh va NATOga qarshi Afg'onistondagi voqealarni shakllantirishda faol rol o'ynashga harakat qildi. hokimiyatning bir tomonlama xatti-harakati. Moskvada Tolibon ishtirokida afg'on guruhlari o'rtasida muzokaralarga yo'naltirilgan muhit yaratish, Afg'oniston hukumati va qo'shni davlatlar bilan rasmiy muzokaralar o'tkazish AQShning Doha tinchlik muzokaralaridagi Tolibon harakati bilan parallel ravishda olib borayotgan muhim qadamlaridandir. Biroq, yakuniy Doha tinchlik kelishuvi AQSh tomonidan imzolandi, bu esa Rossiya tashqi ishlar vazirligi spikeri tomonidan joriy yilning 3-dekabrida bildirilgan Rossianing boshqacha pozitsiyasini qo'zg'atdi. Mariya Zaxarova xonim, AQSH va uning kuchlari Afg'onistonda o'z ixtiyori bilan bo'limgani va Xavfsizlik Kengashi mandati ostida bo'lganiga ishora qilib, "Ularning Afg'onistonda bo'lgan uzoq yillik faoliyati davomida nima bilan shug'ullanganliklarini bilishni istardim va masxara qilish niyatisiz, aytmoqchimanki, ular nimaga erishdilar? Chunki bu mamlakatda vaziyat juda og'ir. Harbiylar va tinch aholi orasida halok bo'lganlar soni ko'p. G'arb kuchlarining Afg'onistonda bo'lgan davrida jamoatchilikdan yashirilgan qancha jinoyatlar sodir etilgan? Ular o'z harakatlari uchun javobgar bo'lishlari kerakligini bilishlari kerak. Xavfsizlik kengashida muzokaralar olib borilishi kerak va Afg'onistonda operatsiyalar o'tkazishga ruxsat bergen jahon hamjamiyati mamlakatda qanday harakatlar amalga oshirilganini bilishga haqli".

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1. Shavkat Mirziyoyev Afg'onistonni gumanitar qo'llab-quvvatlash bo'yicha maxsus fond ta'sis etishni taklif qildi.** <https://daryo.uz.2022.11.18>
2. Kobul "Tolibon"ning Rossiyaga tashrifi yuzasidan BMTga arz qildi 08.09.2019 <https://kun.uz/uz>.
3. Bo'ronov S. Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatish jarayonlarida O'zbekiston Geosiyosati monografiya Toshkent "EFFECT-D", 2021. B.120
4. Hoji Nuriddin Aziziy. Rossiya Afg'onistonga neft, gaz va bug'doy sotadi-Reuters.<https://daryo.uz.2022.09.28>
5. Bo'ronov S. Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatish jarayonlarida O'zbekiston Geosiyosati monografiya Toshkent "EFFECT-D", 2021. B.120
6. Bo'ronov S. Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatish jarayonlarida O'zbekiston Geosiyosati monografiya Toshkent "EFFECT-D", 2021. B.121
7. Bo'ronov S. Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatish jarayonlarida O'zbekiston Geosiyosati monografiya Toshkent "EFFECT-D", 2021. 122.b
8. Ali Akbar Jokar, Top Expert at Central Asia and Caucasus Studies. <https://www.ipis.ir/en/newsview/626367/russia%20%99s-multipronged-policy-in-afghanistan>
9. "Sharqshunos tahlilchilar intellectual klub" Markaziy Osiyo davlatlarining Afg'onistondagi vaziyat bo'yicha muhokama natijalari. 17.11.2022https://t.me/Sharqshunos_tahlilchilar/6275
- 10.Dara M. The National Intervest Tolibon bilan pragmatik munosabatlar Rossiyaga terrorizmga qarshi kurashda yordam bera oladimi?08.09.2021 https://www.rand.org/pubs/external_publications/EP68716.htm
- 11.Andrei Serenko. Ахмад Масуд заявил о невозможности вести переговоры с талибами 13.07.2022. <https://fergana.agency/news/126972/>